

CHET TILLARINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING AHAMIYATI

Saidnazarova Nodira Otaxon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: saidnazarova1997@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan. Ta’lim jarayonida turli interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchida mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, kompetensiya, innovatsiya, metod, ta’lim mazmuni.

«ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность и использование педагогических навыков и педагогических технологий в обучении языкам на сегодняшний день. Даны рекомендации по формированию компетентности, которой должен обладать педагог при использовании различных интерактивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, педагогические технологии, образовательный процесс, компетентность, инновация, метод, содержание образования.

“PEDAGOGICAL SKILLS AND ITS IMPORTANCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES”

ABSTRACT

This article discusses the importance and use of pedagogical skills and pedagogical technologies in language teaching today. Recommendations are given on the formation of competence that the teacher should have when using various interactive methods in the educational process.

Key words: pedagogical skills, pedagogical technologies, educational process, competence, innovation, method, educational content.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz». Ushbu fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisiga nisbatan qo‘yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon barqaror ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega yangi demokratik huquqiy davlat qurilishini amalga oshirishda o‘z yo‘lini tanladi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, yangi, eng samarali ta’lim usullari, axborot texnologiyalari va yangicha imkoniyatlarni izlashni nazarda tutadi. O‘zbekistonda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari ta’limning barcha sohalariga – o‘quv jarayoni, ma’muriy boshqaruv, ilmiy sohaga joriy etilmoqda. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlar uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida samarali o‘qitish usullaridan foydalanish imkonini

berdi. O‘zbekistonda innovatsion yutuqlar uchun barcha darajalarda sifatli ta’lim tizimi bo‘lishi kerak. O‘qitish va o‘rganish tizimini kengaytirish va yangi o‘qitish usullaridan foydalanish nuqtai nazaridan yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning past darajasi hali ham mavjud. Pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish o‘rganuvchiga ko‘proq moslashuvchanlik va kam xarajatlilik, ta’lim olish uchun yaxshi kurslarni erkin tanlay olish, oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan tegishli mutaxassisliklar mazmunini kengroq o‘rganish imkonini beradi.

Chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi - talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o‘rganishga o‘rgatishdir. O‘qituvchining vazifasi har bir talabaga tilni amaliy o‘rganish uchun sharoit yaratish, har bir talabaning o‘z faoliyatini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan ta’lim usullarini tanlashdir. O‘qituvchi zimmasidagi asosiy ma’suliyat xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida talabaning bilim faoliyatini faollashtirishdir. Talabalarga xorij tillarini o‘qitishda quyidagi metod va usullarni tavsiya qilish mumkin: hamkorlikda o‘qitish, “loyiha” metodi, yangi axborot texnologiyalari va internet - resurslardan foydalanish, masofaviy o‘qitish (yoki chet ellik mutaxassislarni jalb qilish – online shaklda). Bular kabi bir qator zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari shaxsiy yo‘naltirilgan, sifatli ta’lim yondashuvini amalga oshirishga va ta’lim jarayonining sifatini yanada oshirishga yordam beradi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy tamoyillari shulardan iborat bo‘ladiki, bunda talabalar guruhleri shakllantiriladi hamda har bir guruhda bilimi kuchli, o‘rta va zaif talabalar bo‘ladi. Guruhga bitta vazifa beriladi, ammo u bajarilganda guruh a’zolari o‘rtasida ro‘llar taqsimlanadi. Bir talabaning emas, balki butun guruh ishi baholanadi ya’ni, butun guruh uchun bitta ball beriladi. O‘qituvchi topshiriqning bajarilishi bo‘yicha hisobot berish uchun guruhdan bitta talabani tanlaydi. Agar bilimi nisbatan zaifroq talaba guruhning birgalikdagi ish natijalari haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lsa va topshiriq natijalarini batafsil tushuntirib bersa, boshqa guruhlarining savollariga javob bera olsa, demak, maqsadga erishilgan va guruh vazifani bajargan hisoblanadi, chunki har qanday topshiriqning

maqsadi uning rasmiy bajarilishi (to‘g‘ri/ noto‘g‘ri qaror) emas, balki har bir guruh talabasi tomonidan materialning o‘zlashtirilishidir. Hamkorlik texnologiyasidan foydalangan holda talabalarga grammatik vazifalarni bajarishni, uy vazifasini tekshirishni, o‘qib tushunish uchun berilgan matn ustida ishlashni, imlo ko‘nikmalarini tekshirishni, so‘z birikmalari ustida ishlashni o‘rgatish mumkin. Talabalarning mustaqil ta‘lim faoliyatini rag‘batlantirish ham juda muhimdir. Hamkorlikda ishlash esa bilim olishlari uchun, muloqot qilish uchun ajoyib rag‘bat beradi, chunki bu uslubda talaba har doim do‘stlarining yordamiga tayanadi va bilim olishda bir-biriga yordam berishadi. Ushbu texnologiyaning asosiy prinsipi: biz o‘zimiz bilim olishimiz uchun mas‘uliyatni o‘z zimmamizga olamiz.

Har bir inson nafaqat o‘z muvaffaqiyati uchun, balki jamoa a‘zolarining muvaffaqiyati uchun ham mas‘uldir. Yana bir zamonaviy usullardan biri “loyiha” metodi hisoblanadi. Bu metodda, o‘qituvchi talabalar o‘rganayotgan tilda ular oldiga birorta muammoli mavzu yoki vaziyatni tashlaydi va uni yechishni, shunga mos birorta loyiha ishlab chiqishni yoki boshqa birorta yechim berishni aytadi. “Loyiha” metodi ijodiy qobiliyatlarni, kognitiv faollikni va mustaqillikni rivojlantiradigan, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni ta‘minlaydigan texnologiyalardan biridir. “Loyiha” metodi talabalarning muloqot qobiliyatlari, muloqot madaniyati, fikrlarni qisqacha va osonlik bilan bayon etish qobiliyati, hamkorlar bilan fikr almashish, turli manbalardan ma‘lumotlar olish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash qobiliyatini shakllantiradi. “Loyiha” metodi talabalarga o‘zlari to‘plagan bilimlarni mavzu bo‘yicha qo‘llash imkonini beradigan eng dolzarb texnologiyalardan biridir. Bu bilan talabalar o‘z tafakkurlarini va til bilish chegaralarini kengaytirib boradilar. Ular adabiyotlar, lug‘atlar va kompyuterlar bilan ishlaydi. Loyiha ustida ishlash ijodiy jarayon bo‘lib, talaba mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida muammoni hal qilish bilan shug‘ullanadi, bu nafaqat til bilishni, balki katta hajmdagi bilimlar, ijodiy, kommunikativ va intellektual ko‘nikmalarga ega bo‘lishni ham talab qiladi. Loyihalar ustida ishlash tasavvur, ijodiy fikrlash, mustaqillik va boshqa shaxsiy fazilatlarni ham rivojlantiradi. Ta‘limda yangi

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish deganda, nafaqat yangi texnik vositalar, balki ta'limning yangi shakllari va usullari, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv ham tushuniladi. Ingliz tilini o'rganishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bizga darsni yanada qiziqarli qilish imkonini beradigan metodik vositalar va texnikani tanlashga yordam beradi. Til o'qitishda AKTdan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi: ta'lim jarayonining doirasi kengayadi, uning amaliy yo'nalishi faollashadi, talabalarning o'qishga motivatsiyasini oshiradi, fanga bog'liqlikni rivojlantiradi va kuchaytiradi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning mustaqilligini rivojlantiradi, mavzu bo'yicha bilim sifatini oshiradi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Chet tillarini o'qitishda "Pedagogik mahorat" fanining asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. "Pedagogik mahorat" fani kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatadi. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarni boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Chet tillarini o'qitish orqali o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o'qituvchiga qo'yiladigan muhim talablardan biri ham ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo'llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. Uzlüksiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida ham

o‘qituvchi dars jarayonida noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin boshlang‘ich sinflarda xorijiy tillarni o‘quvchilarga o‘rgatishda xorijiy til o‘qituvchisi o‘quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o‘rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo‘llashi maqsadga muvofiqdir.

Chet tillarini o‘qitishda pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi ega bo‘lish.
2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi yoki sohibasi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O‘quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunish.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Ushbu kompetensiyalar umumiy holda tavsiya etilgan bo‘lib, ularni «Klaster» usuli orqali qismlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish uchun tajribali mutaxassislarning 1-, 2- va 3-sinflarda xorijiy tillarni o‘rgatishining ahvolini o‘rganish, monitoring qilish yoki ularning faoliyatini

o‘rganish va ularga metodik yordam berish bugungi asosiy vazifalardan biridir. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi maqsad tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilishi, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Talaba yoki o‘quvchilarni darslarga qiziqtirish uchun o‘qitishning boshqa shakllaridan, ya’ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o‘qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya’ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi. Rebus, krossvordlar o‘yinli texnologiyalar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, pedagogik amaliyot, ta’lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati baribir o‘qituvchining bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog‘liq. Pedagogik mahorat doim o‘qituvchi uchun muhim omillardan biri bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, chet tili o‘rgatuvchi o‘qituvchi qanchalik pedagogik mahoratga, qobiliyatga ega bo‘lsa, shunchalik darsi sifatli bo‘ladi va har bir darsdan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarning bilimida ham o‘qituvchining kasbiy mahorati ko‘rina boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abasov, ZA. A disciple as a subject of pedagogical technology / ZA Abasov // School technologies. - 2001. - № 2. - C. 39-44.
2. Ashurova D.P. Preparation of linguist disciplines in the Language University. The scientific labor of the materials of the fourth international scientific and practical conference (Voronezh, 19-20 February 2019)
3. Volkov, Yu. Traditional and new technologies of study: " In addition," Volume / OU. Volkov // Higher education in Russia. - 2003. C.35-43.

4. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001
5. Otaboyev, M. R. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar samaradorligi // Young scientist. - 2017. - No. 4.2 (138.2). - C. 36-37.
6. Aripov M.M., Muhammadiyev J.O‘. Informatika, informatsion texnologiyalar // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: TDYI, 2004.
7. Axmedov A., Tayloqov N. Informatika // Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2001
8. Kenjaboyev A. Pedagogik texnologiyalar – dars samaradorligining muhim omili. – T.: «Navro‘z», 2012.
9. Kenjaboyev A. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: «Navro‘z», 2012.
10. Kenjaboyev A., Salomova G., Sohibov B. Masofaviy o‘qitishning pedagogik asoslari. // «Zamonaviy ta’lim», 2014, 10-son. -3–7-b.
11. Kenjaboyev A., Kenjaboyev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. // «Zamonaviy ta’lim», 2015, 4-son. -61–64-b.
12. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2006.
13. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006.
14. Feberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2000.